

ALKOGOLSIZ SHAKARLI ICHIMLIKLAR IMPORTINING TASHQI SAVDODAGI O'RNI VA OQIBATLARI

Shoimqulov Raxmonqul Ulug'murotovich

Bojxona qo'mitasi Tashqi iqtisodiy faoliyat

ilmiy markazi yetakchi ilmiy xodimi,

Toshkent shahar, O'zbekiston

raxmonqul_shoimqulov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezisdan O'zbekiston Respublikasida kuchli gazlangan, rangli, shirin hamda energetik ichimliklar importi va iste'molining so'nggi yillarda keskin o'sish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu mahsulotlarning aholi, ayniqsa yoshlar salomatligiga salbiy ta'siri, mahalliy ishlab chiqarish hajmining pasayishi hamda ichki bozorda import ulushining ortib borishi kompleks ravishda o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro amaliyotda shakarli ichimliklar iste'molini cheklash bo'yicha qo'llanilayotgan soliq, reklama va axborot siyosatlarini tahlil qilinib, milliy sharoitga mos ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: shakarli ichimliklar, energetik ichimliklar, import siyosati, aksiz soliq, aholi salomatligi, reklama cheklovlari, sog'lom turmush tarzi

РОЛЬ И ПОСЛЕДСТВИЯ ИМПОРТА БЕЗАЛКОГОЛЬНЫХ СЛАДКИХ НАПИТКОВ ВО ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ

Шоимкулов Рахмонкул Улугмуратович,

ведущий научный сотрудник

Научно-исследовательского центра

внешнеэкономической деятельности

Таможенного комитета

raxmonqul_shoimqulov@mail.ru

Аннотация: В данной научной работе анализируются тенденции резкого роста импорта и потребления газированных, красящих, сладких и энергетических напитков в Республике Узбекистан в последние годы. Исследование всесторонне изучает негативное влияние этих продуктов на здоровье населения, особенно молодежи, снижение местного производства и увеличение доли импорта на внутреннем рынке. Также проанализированы налоговая, рекламная и информационная политика, используемая в международной практике для ограничения потребления сладких напитков, и разработаны научно-практические предложения, адаптированные к национальным условиям.

Ключевые слова: сладкие напитки, энергетические напитки, импортная политика, акцизный налог, общественное здравоохранение, ограничения на рекламу, здоровый образ жизни

Kirish.

So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida tarkibida shakar miqdori yuqori bo'lgan alkogolsiz ichimliklar iste'molining ortishi global sog'liqni saqlash muammosiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, kuchli gazlangan, rangli, shirin hamda energetik ichimliklar zamonaviy iste'mol madaniyatining ajralmas qismiga aylanib, bolalar va yoshlar o'rtasida keng tarqalmoqda. Bu holat aholi salomatligi, mehnat unumdorligi va davlatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ham mazkur turdagi ichimliklarga bo'lgan talabning tez sur'atlarda o'sishi kuzatilmoqda. Bir tomondan, import hajmining keskin oshishi, ikkinchi tomondan esa mahalliy ishlab chiqarishning pasayib borayotgani ushbu sohani ilmiy jihatdan tahlil qilish va davlat siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois, ushbu ilmiy tezisda ichimliklar importi va iste'molini cheklash orqali aholi salomatligini muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Asosiy qism.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, tarkibida shakar miqdori yuqori bo'lgan ichimliklar inson organizmi uchun eng xavfli oziq-ovqat mahsulotlari qatoriga kiradi. Ushbu ichimliklarning bir litri tarkibida o'rtacha 100–110 gramm shakar mavjud bo'lib, bu inson uchun tavsiya etilgan kunlik me'yordan bir necha barobar yuqori hisoblanadi. Natijada bunday ichimliklarni muntazam iste'mol qilish semizlik, qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, tish kariyesi va boshqa surunkali kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona statistikasi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda kuchli gazlangan, shirin va energetik ichimliklar importi jadal sur'atlarda o'sgan. Ayniqsa, 2019–2024-yillar oralig'ida import hajmining o'n barobarga yaqin oshgani aholining ushbu mahsulotlarga bo'lgan iste'mol ehtiyoji keskin ortib borayotganini anglatadi. Bu jarayon aholi soni o'sish sur'atlaridan ancha yuqori bo'lib, iste'mol madaniyatida salbiy tendensiyalar shakllanayotganini ko'rsatadi.

Import tarkibida energetik ichimliklarning ulushi katta bo'lib, ularning iste'moli ayniqsa yoshlar orasida ommalashgan. Energetik ichimliklar yuqori shakar miqdoridan tashqari, kofein va boshqa qo'zg'atuvchi moddalarni ham o'z ichiga olgani sababli asab tizimi va yurak-qon tomir tizimiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu mahsulotlarning reklama orqali faol targ'ib qilinishi iste'molni yanada rag'batlantirmoqda.

Mazkur holat fonida respublikada alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish hajmining yildan-yilga kamayib borayotgani kuzatilmoqda. Ichki ishlab chiqarishning qisqarishi ichki bozorda import mahsulotlar ulushining ortishiga, milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini pasayishiga hamda iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tarkibida shakar miqdori yuqori bo'lgan ichimliklar iste'molini kamaytirish aholi salomatligini yaxshilashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Xususan, Fransiya va Buyuk Britaniya davlatlarida ushbu maqsadda shakarli ichimliklarga differensial aksiz soliq joriy etilgan bo'lib,

soliq stavkasi ichimlik tarkibidagi shakar miqdoriga bevosita bog'langan. Bunday yondashuv ishlab chiqaruvchilarni mahsulot tarkibini qayta ko'rib chiqishga, shakar miqdorini kamaytirishga va nisbatan sog'lom alternativ mahsulotlar ishlab chiqarishga rag'batlantirgan. Natijada mazkur davlatlarda iste'mol qilinayotgan ichimliklar tarkibidagi shakar miqdorini sezilarli darajada qisqartirishga erishilgan.

Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarda soliq siyosati reklama va marketingni cheklash choralari bilan uyg'un holda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Buyuk Britaniyada shakarli ichimliklarni savdo nuqtalarda turli aksiyalar orqali targ'ib qilish, shuningdek, bloggerlar va inflyuyenserlar orqali ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilish taqiqlangan. Televideniya esa belgilangan vaqt oralig'ida bunday ichimliklar reklamasini to'liq cheklash amaliyoti joriy etilgan. Ushbu chora-tadbirlar natijasida aholi o'rtasida shakarli ichimliklar iste'moli qisqarib, soliq tushumlari esa sog'liqni saqlash va sport sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgani mazkur siyosatning ijtimoiy samaradorligini oshirgan.

Qator davlatlarda, jumladan Chili, Meksika va Isroilda shakar miqdori yuqori bo'lgan ichimliklar qadog'iga majburiy ogohlantiruvchi belgilar joriy etilishi iste'molchilar ongini shakllantirishga qaratilgan muhim instrument sifatida qo'llanilmoqda. Ushbu amaliyot iste'molchilarni mahsulot tarkibi haqida tezkor va tushunarli axborot bilan ta'minlab, sog'lom tanlov qilish imkoniyatini kengaytirgan. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq, reklama cheklovlar va ogohlantiruvchi belgilarni kompleks qo'llash shakarli ichimliklar iste'molini kamaytirishda eng samarali institutsional mexanizm hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kuchli gazlangan, rangli, shirin hamda energetik ichimliklar importi va iste'molining ortishi O'zbekiston Respublikasi uchun nafaqat sog'liqni saqlash, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ham dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu mahsulotlarning keng iste'mol qilinishi aholi salomatligiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatib, davlat byudjeti uchun qo'shimcha tibbiy xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Shu munosabat bilan tarkibida shakar miqdori yuqori bo'lgan ichimliklar

importiga berilgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish, aksiz soliqni shakar miqdoriga mutanosib ravishda belgilash, ushbu mahsulotlar reklamasini, ayniqsa yoshlarga qaratilgan marketingini cheklash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, shunday ichimliklar qadoqlariga ogohlantiruvchi belgilar joriy etish va aholining oziq-ovqat iste'moli madaniyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli axborot-targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur.

Bundan tashqari, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni past kaloriyalı, tabiiy va inson salomatligi uchun foydali ichimliklar ishlab chiqarishga yo'naltirish, xalqaro ilg'or tajribani o'rganish va joriy etish orqali ichki bozorda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish mumkin. Ushbu chora-tadbirlar kompleks amalga oshirilgan taqdirda, aholi salomatligini yaxshilash va sog'lom turmush tarzini ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti. *Guideline: Sugars intake for adults and children*. – Geneva: WHO, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PF-41-son Farmoni.
Tovarlarni olib kirishda bojxona imtiyozlari to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, amaldagi tahrir.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksi. – Toshkent, amaldagi tahrir.